

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

AYNIY MAKTUBLARIDA ADABIYOT MANZARALARI

Maftuna Shomurodova

O‘z R FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: XX asr adabiyoti va adabiyotshunosligida o‘zining forsiy hamda turkiy xalqlar uchun mushtarak ijod namunalari bilan nom qozongan takrorlanmas va buyuk ijodkor – Sadridin Saidmurodzoda Ayniydir (1878-1954). Uning o‘z davri adabiy muhitining ravnaq topishida bo‘lakcha o‘rni bor. Maqolada ushbu jihat unga aloqador maktublar orqali izohlanadi.

Kalit so‘zlar: davr, adabiyot, Navoiy, talqin, mushohada, maktab, axloq, jadid, ma‘rifatparvarlik, adabiyot.

XX asr adabiy tanqidchiligida maktub janri alohida ahamiyatga ega. Sadridin Ayniy ijodiyoti, adabiy merosi va adabiy jarayondagi o‘rnini ko‘rsatib beruvchi yana bir jihati mavjud, u ham bo‘lsa olimning turli maqsadlarda yozgan maktublaridir. Uzoq tarixga ega ushbu janrda Sharq adabiyotida maxsus yozilgan nomalardan tashqari yaratilish jihatidan ming yillar avvalgi moziyga borib taqaluvchi xalq dostonlari tarkibida ham noma namunalarini uchratamiz. “O‘tmishda olim, shoir va o‘z davrining bilimdonlari shaxsiy munosabat bilan yozilgan xatlarni avaylab saqlashni odat qilgan” [4,5]. Ammo bu an‘ana hanuzgacha saqlanib qolgan deyish qiyin. Adabiyotshunos Majid Hasanov Ayniy maktublari borasida atroflicha izlanish olib borib, ulardan bir nechtasini o‘z kitobi tarkibida nashr ettirib ilm ixlosmandlariga taqdim etgani tahsinga sazovordir. Qolaversa, o‘zbek tilidagi Ayniy asarlarining sakkizinchi tomida ham xatlaridan namunalar mavjud. Olimning maktublari mumtoz adabiyotning tadqiqotchisi sifatida olib borgan izlanishlarida goh uzoqni yaqin qilib fikr almashish vositasi, goh boshqalar tomonidan klassiklar ijodini xato talqin qilingan o‘rinlarini ko‘rsatish borasida tanqidiy, goh qutlov, goh murojaat, gohida esa samimiy maslahatlarini etkazish vazifalarini o‘tagan. Shu jumladan, uning M.Gorkiy, V.V Mayakovskiy, D. Bedniy, A.N.Tolstoy, A.A.Fadeyev, M.Sholoxov, K.Fedin, N.Tixonov, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Samad Vurg’un, M. Ibrohimov, Berdi Kerboboyev, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Sh.Rashidov, Y.E.Bertels, Y.E.Polivanov, A.A.Semyonov, I.S.Braginskiy, Y.G‘ulomov, V.I.Shishkin, M.Gerasimov, I.M.Mo‘minov, V.Zohidov bilan yozishmalari ma‘lum. Sadridin Ayniyning umri davomida yozgan maktublari jamlansa, salmoqli xazina bo‘lishi shubhasiz. Biz uning maktublaridagi murojaat obyektlariga ko‘ra, alohida shaxslarga, turli tahririyatlarga yo‘llangan, xalq ommasiga va (xat ko‘rinishidagi maqolalar)... kabi turlarga bo‘lishimiz mumkin.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ayniyshunos olimlar to’g’ri ta’kidlaganidek, adibning ilk ilmiy-filologik nasri namunasi 1912-yilda tatar olimi Olimjon Idrisiy tomonidan “Sho’ro” jurnalida chop etilgan “Mirzo Bedil haqida” nomli maqolasi edi. Gap shundaki, Ayniy bilan Buxoro madrasasida birga o’qigan turkiyalik Olimjon Idrisiy 1910-yilda “Sho’ro” jurnalida Bedil haqida maqola chop etadi, lekin keyinchalik tarjimayi holni yoritishda bir qancha xatolarga yo’l qo’yganini anglaydi va yordam so’rab Ayniyga maktub yozadi. Javob xatini olgach, biroz vaqtdan so’ng jurnalda maqola chop etiladi. Xullas, o’sha maqola O.Idrisiyga tegishli bo’lmay, uning tarjimasi ostidagi aynan Ayniyning maktubi maqola shaklida bosilgan edi (forsiydan turkiyga tarjima qilgan). Bu haqda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul alohida ta’kidlab: “Istanbulga yo’llagan maktubida Mirzo Bedil tarjimayi holi, muhiti, falsafasi, uslubi xususida aytilishi zarur bo’lgan barcha muhim gaplarni bayon etgan...” [4, 239] – deydi.

Ayniyga mansub xalq ommasiga yo’llangan muhim maktublardan biri, uning ming yillik adabiy jamlanmasi bo’lmish “Namunai adabiyoti tojik”ni yozishga qaror qilgach, “Ovozi tojik” gazetasining 1925-yil mart oyining ikkinchi sonida bu muhim qadam haqidagi xabari e’lon qilinadi. Ayniy Markaziy Osiyoning mahalliy forsiyzabon tojiklariga, umuman, xalqqa murojaat maktubini yo’llab, ushbu muhim maqsadini amalga oshirishda yordam so’raydi. Keyinchalik Ayniy mazkur antologiyaning nashr etilishi yo’lida kattagina xizmati singgan shaxs A.Lohutiy bilan muntazam, umrining so’nggigacha xat yozishib turishgan. Mazkur xatlar jamlanib, Dushanbeda ikki marta alohida kitob tarzida nashr etiladi. Ushbu yozishmalar ilk bor 1978-yilda Sadridin Ayniy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tanlab olingan holda chop etilgan. Keyingi nashr 2003-yilda amalga oshirilgan bo’lib, dastlabkisiga ma’lum sabablarga ko’ra kiritilmagan maktublar bilan to’latib qayta ilm ahliga taqdim etiladi. Ushbu maktublarning biz uchun ahamiyatli jihati shundaki, ularda shaxsiy, maishiy masalalar bilan birga ikki buyuk shaxsiyatning insoniy fazilatlari, adabiy-ijtimoiy mavqeyi, ilmiy-adabiy suhbatlari, serqirra faoliyati, amalga oshirgan va oshirmoqchi bo’lgan ishlari, qimmatli maslahatlari ham o’rin olgan.

Majid Hasanov tadqiqotlarining birida “Maktublar – qalb qutblari” rukni ostida Ayniyning Hamid Olimjon, Abdulla Qodiriy, G’afur G’ulom bilan yozishmalariga alohida e’tibor qaratadi. “S.Ayniy Alisher Navoiy yubileyi munosabati bilan shoir asarlari tadqiqi ustida ish olib borayotgan yozuvchi va olimlardan G’afur G’ulom, Hamid Olimjon, Chustiy, Olim Sharafiddiniv, Porsoxon Shamsiyev, Boqi Nasriddinov, Vohid Zohidov, Hodi Zaripov, Sobirjon Ibrohimovlar bilan o’zining boy tajribasi, bilimini o’rtoqlashdi” [3,73]. Ma’lumki, 1939-yili Nizomiy va Navoiy yubileylariga bag’ishlangan ilmiy anjuman qaroriga binoan,

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Navoiy asarlariga 4 tomli izohli lug‘at tuzish maqsadida navoiyshunos va leksikograflardan iborat guruh tashkil qilingan. Uning tarkibida Boqiy, Habibiy, Anisiy, Maxmur, Chustiy, Sodiq Mirzayev, Sobirjon Ibrohimov, Abulg‘ani Mutallibov va boshqalar bo‘lgan. Tilshunos Sobirjon Ibrohimovning xotirlashicha: “Navoiy lug‘atining I tomi (70 bosma varaq hajmida) qo‘lyozmasi tuzildi. Uni Ayniyning ko‘ruvidan o‘tkazish lozim bo‘ldi va Til va adabiyot instituti nomidan shu ishga yordam berishini so‘rab Samarqandga – Ayniy nomiga xat yozildi. Uning roziligi olindi. Qo‘lyozmaning bir nusxasini men Samarqandga oborib domlaga topshirib keldim. U qo‘lyozmani ko‘rib bir qancha qimmatli mulohazalari bilan bizga qaytardi” [2,45], – deydi. Ish jarayonida ba’zi noaniq, bahsli masalalar chiqqanda Ayniy imkon topgan vaqtida borib tegishli maslahatlar bergan. “Ma’nosi biz uchun noaniq, maslahatlashib ko‘rilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni ba’zan domla Ayniyga yozib yuborib, ma’nolarini so‘rar edik”, – deydi S.Ibrohimov, “u kishi erinmasdan javob yozar edilar. Masalan: “Farhod va Shirin” dostonidagi:

Biri har dam yo‘nib yuz nav‘i (navo?) xora,

Ki, qilg‘ay havz yo farshu izora, –

baytida ishlatilgan “izora” so‘zi ustida ko‘p kelishmovchiliklar va tortishuvlar bo‘ldi. Shunda Sadridin Ayniyga murojaat etdik. “Izora” so‘zi, – deb yozgan edi Ayniy, – bu uy ichida tokchadan pastki qismiga tushirilgan gul demakdir” [2,45]. Ayniy asarlarining 8 tomli to‘plamini o‘zbek tilida nashrga tayyorlash jarayonida katta mehnati singgan adabiyotshunos olim M.Hasanov 1963-yil 8-mayda akademik shoir G‘afur G‘ulom bilan bo‘lgan suhbatlarida ham shu mavzuda so‘z boradi. “Shuningdek, – deydi G‘.G‘ulom – Ayniy domla iz‘on – bo‘ysunish, g‘ulf – quvur, g‘urfa – boloxona, g‘usl – cho‘milish, hajjom – tomirdan qon oluvchi tabib, hayjo – urush, jang; hayza – vabo kabi ko‘plab so‘zlarning ma’nolarini yozib yuborganlari hali esimda. Biz domladan tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarga to‘liq javob olar ekanmiz, Ayniyning arab, fors va turkiy tillarning ajoyib bilimdoni, mashhur sharqshunos va adabiyotshunos olim ekanligiga yana bir marta qoyil qolgan edik” [2,84]. Afsuski, urush tufayli ko‘p o‘tmay lug‘at tuzuvchi guruh tarqatiladi, I tom qo‘lyozma bosilmasdan qoladi. Suhbat davomida G‘.G‘ulom: “Ayniy adabiyotda katta bir dengiz. Shu dengizdan barcha bahramand bo‘lmog‘i uchun tojik va o‘zbek olimlari qo‘lni-qo‘lga berib, adib asrlarini barchasini jamlab, akademik nashrini tayyorlash payti ham keldi” – deydi.

Ayniy Abdulla Qodiriy, Hamza, Sidqiy Ajziy, Muhammadsharif So‘fizoda, Fitrat, Abdulvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy kabi do‘stlari bilan ham xat yozishib turgan. Gazeta-jurnallarni doimiy kuzatib boruvchi va ularda o‘zining ham turli

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

maqola, ocherklari bilan muntazam chiqish qilib boruvchi ijodkor, zarur paytlarda ularda yo’l qo’yilayotgan xato va kamchiliklar borasida tahririyatlarga maktub yozib turgan. Yoki biror yozuvchi va shoirlar ijodi xususida o’sha paytlarda avj olgan tanqidchilik ruhida yozilgan maqolalar o’ziga ayon haqiqatlarga zid bo’lsa tezda o’z munosabati bildirilgan maktublarni yo’llardi.

1920-yil BXSRS tuzilgach Ayniy Buxoro Xalq Soveti Respublikasi Maorif Noziri Qori Yo’ldosh Po’latovga maktub yo’llaydi. Unda Buxoroda yanga usul maktablarini tashkil etish va darsliklar bo’yicha o’z fikr mulohazalarini, takliflarini bayon etadi: “Turkistonda yangidan nashr qilingan kitoblar qo’lga kiritmoq ila barobar qanoat qilaturgan bir darajaga til va imlo jihatidan Buxoro o’zbeklariga muvofiq emasdir, xususan, so’z ta’limi jihatidan ham ko’p mushkulotlarga uchrash mumkin. Chunki ko’p nashr qilaturgan darsliklar usmonli turklar, tatarlar va chig’atoy shevalari asosida yozilgan bo’lib, hatto turkistonlik mahalliy o’quvchi bolalar uchun ham bu kitoblarning tili og’irlik qiladi”[6]. Ayniyning adabiyotshunoslikdagi salohiyati uning tilshunosligi bilan ham belgilanadi. U arab, fors tillarini, xususan, mumtoz adabiyot namunalari tilini puxta bilganligi bois tilshunoslik borasida ham dadil asosli fikrlarni o’rtaga tashlay olgan.

Ayniy haqiqiy iste’dod sohiblarining yoshi, tajribasi, moddiy va ma’naviy mavqeidan qat’i nazar qo’llab quvvatlagan, ilhomlantiruvchi maktublar bilan dadillik baxsh etgan, kamchiliklari bo’lsa, samimiy maslahatlarini ayamagan. Chunonchi, Said Nazar, Sotim Ulug’zoda, Davron Qodiriy, Hakim Zohidiy, Po’lat Tolis kabilarga yozgan xatlari bunga misol. O’z navbatida, adibning zamondoshlari xotiralarida ustodning shogirdlariga nisbatan o’ta talabchan, qattiqqo’l munosabatda bo’lishi ko’rinib turadi. Sadridin Ayniyning Hamid Olimjonga yo’llagan bir maktubini yozishiga Abdurahmon Sa’diyga mansub “O’zbek adabiyoti va san’ati” jurnalining 1939-yil, 9-sonida chop etilgan maqolasi sabab bo’ladi[2,155-158]. Ushbu maktubda ustodning o’tkir qalami bilan bitilgan kinoyaomuz so’z va iboralardan keng foydalanganligining guvohi bo’lamiz. Bunga sabab, birinchidan maqola muallifining buyuk san’atkor – Alisher Navoiy ijodini yoritishda yo’l qo’ygan jiddiy xatolari bo’lsa, ikkinchidan Ayniy kabi zakiy, adabiyot uchun qayg’uruvchim nohaqlikka ko’z yuma olmaydigan chin olim boshqacha yoza olmasdi. Ish bor joyda xato va kamchiliklar bo’lishi tabiiy, lekin undan tegishli xulosa chiqarib takrorlamaslik ham, buning uchun dadil kamchiliklarni sanay olish ham insoniylikdir. Ayniy: “...bu maqolaga “1939-yil, yanvar”, deb qo’yilgan tarix (sana) meni taajjubga soldi. Avtor bu maqolani siezdada o’rtoq Sharafiddinov va mening Sa’diy to’g’risidagi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tanqidlarimizdan hamda o’rtoq Sharafiddinovning uning to’g’risidagi maqolasidan¹ ilgari yozgan bo’lib chiqmoqda va bu bilan “oliyjanoblik va ulug’vorona hamda professorona” javob bermoqda. ...o’quvchilarga o’zining xatolarini bizning yordamimizdan burun tuzatolganini va bizning uning haqidagi gaplar, quruq tuhmatdan iborat bo’lganini ko’rsatmoqchi bo’lgan”. Bu o’rinda, Sa’diyning har ikki maqolasidagi Navoiy haqidagi umumiy va nazariy ma’lumotlar tamoman bir-biriga teskari bo’lsa ham Ayniy domlani maktubni yozishga majbur qilgan narsa bu emas edi. “Bu to’g’rida bu maqolada tafsilli misollar keltirish uchun hozir fursat va hafsalam bo’lmasa ham kichkina bir hisobot yozishga majburman”, – deydi. Ayniy hisobicha, Sa’diy o’z maqolasida 120 ta lug’atga izoh yozgan bo’lsa-da, ularning 25 tasi xato. Masalan, “Saman” – malla ot, lekin adabiyotda umuman ot ma’nosida ishlatiladigan so’zni Sa’diy – “qush uchishidagi sur’atli harakat”, deya izohlagan. Yoki, “tarix” so’zi bir joyda “ijod”, boshqa joyda “gavhar-marvarid” deyilgan. Ikki o’rinda qadim ma’nosida bo’lgan “gom”ni “kom” deb o’qib “Navoiy she’rini tamoman ma’nosiz bir narsa qilib yuborgan”, – deydi, “yurish ma’nosida bo’lgan “xirom”ni “go’zal ifoda” degan. “Ishbilarmon” ma’nosida bo’lgan “kordon”ni “xalq ommasi” deb tushuntirgan”, – deyiladi tanqidiy maktubda. “Bundan boshqa 15 joyda Navoiy tekstlarini xato o’qib, xato ko’chirgan... vazn qofiyalarni buzib yuborgan... Bir joyda Navoiy “Saddi Iskandariy”ning oxiridagi o’z ukasi Darvesh Aliga xitob yozgan bir parchadan misra ko’chirib, u misralarni Navoiy Husayn Boyqaroga xitob qilib yozgan, degan... “Saddi Iskandariy”dan ko’chirilgan bir parchani “Sab’ai sayyor”dan deb yuborgan”. Yuqoridagilardan shu narsa anglashiladiki, haqiqatdan ham, sharq klassik adabiyotining mohir bilimdoni bo’lmish Sadridin Ayniy ular xususida qilingan noto’g’ri tahlillarga, asl matnlar bilan ishlanmay chiqarilgan xulosalarga jim qarab turolmaydi. Maktub 1939-yil 15-dekabr sanasi bilan yozilgan bo’lib, bu paytda Ayniy Navoiy “Xamsa”sining qisqartirib nashrga tayyorlagan nusxasini Komitetga yuborgan edi. Shuning bilan barobarida, o’sha kezlarda yosh adabiyotshunos, navoiyshunos bo’lmish Olim Sharafiddinov “Alisher Navoiy” nomli monografiyasini e’lon qiladi. Olim ushbu ishni yuzaga kelishiga qadar boshqa ustoz navoiyshunoslar bilan birga Ayniy bilan ham maktub yozishib, goh suhbatini olib maslahatlashib turgan. Bu ilmiy asarning yaratilishiga beminnat ko’mak va yo’l-yo’riq ko’rsatib turgan, yosh iste’dodlarni qo’llab quvvatlab, o’z yordamini ayamaydigan, o’ta sinchkov va iste’dodni xolis

¹ Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy va uning adabiy faoliyati” nomli maqolasida (“Sovet pedagogikasi”, 1939-yil, 3-son); “Navoiy ijodiyotini qalbakilashtirishga qarshi” (“Qizil o’zbekiston. 1939, 27, 28 29-iyul”) S.Ayniyning “Navoiy asarlarini chuqur o’rganaylik” (“Qizil O’zbekiston” 1939-yil, 10-iyun) – maqolalarida A.Sa’diyning Alisher Navoiy to’g’risidagi ishlari tanqid qilinadi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

baholovchi Ayniy tahsiniga sazovor bo‘ladi va unga manzur tushib muallifga quyidagi qizg‘in qutlov maktubini yozadi.: “Hurmatli o‘rtoq Sharafiddinovga. Men siz tomondan yozilgan Navoiy tarjimai holini diqqat bilan va zavqlanib o‘qib chiqdim. Sizni bu muvaffaqiyat bilan tabrik etishimga ruxsat bering. Bu tarjimai hol bu kungacha Navoiy to‘g‘risida yozilgan tarjimai hollarning eng to‘g‘risi, eng to‘lasi va eng mazmunligi deb, da’vo etishga jur’at qila olaman... O‘rtoqlik salomi bilan S.Ayniy. 20-mart, 1939 yil” [7,407]. Nashrdan so‘ng Olim Sharafiddinovning Ayniyning qutlov maktubi bilan birga alohida olti varaqli taqriz maktubini ham olganligi navoiyshunoslik taraqqiyotida katta ahamiyatga molik.

Umrining so‘nggi lahzalarigacha o‘zini adabiyotga baxshida etgan, jonkuyar siymo – Sadriddin Ayniy vafotidan uch kun oldin shogirdi, tojik yozuvchisi Abdusalom Dehotiyga quyidagi mazmunda maktub yozadi: “Agar bu la’nati dard menga yana bir yil yoki yarim yil yashashga imkon berganida edi, men yana ikki ishni: “Esdaliklar”imning beshinchi qismini va tojik poeziyasining aruz vazni haqidagi kitobni tamomlar edim. Meni ko‘pdan buyon yana bir ish tashvishlantiradi, bu ish tojik tili grammatikasining yaxshi bir darsligini yaratishdan iborat” [2,98]. Ko‘rinib turibdiki bu ishlarning armonga aylanishini aniq sezib taslim bo‘lgan kishi iqrori va taqdir izmiga tan berishi edi.

Sadriddin Ayniyning hayot yo‘li, asarlari, u haqidagi xotiralar bilan tanishib borgan sari kishi ongida takrorlanmas o‘ziga xos shaxsiyat gavdalanadi. Ushbu shaxsiyatdan mehribonlik, ochiqko‘ngillik, samimiyat, chidam, sabot, mas’uliyat, rostgo‘ylik, chapanilik, halimlik bilan birga nohaqlikka qarshi isyon, ikkiyuzlamachilarga g‘azab, manfaatparastlarga nafrat, ilmbuzarlarga beshafqatlik ruhi ochiqchasiga ko‘rinib turadiki, ularning natijasi amallarida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Садриддин Айний. Қисқача таржимаи ҳолим. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960.
2. Ҳасанов М. Айний чамани. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
3. Айний замондошлари хотирасида (тўплаб нашрга тайёрловчи Мажид Ҳасанов). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
4. Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. – Т.: Шарқ, 2007.
5. Ўрибоев А. Ҳасанов М. Навоий замондошлари мактубларида. – Т.: Фан, 1990
6. Дилноза Жамолова. Зиёга чорлагани учун 75 дарра калтакланган маърифатпарвар // Тафаккур чашмаси. “Миллий тикланиш” ижтимоий-сиёсий газетаси. №35 12-октабр 2022-йил
7. Садриддин Айний. Асарлар. Саккиз томлик, саккизинчи том. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б. 407